

O‘ZBEKISTONDA EKTREMAL TURIZM IMKONIYATLARI VA TURISTLARNI JALB QILISH YO‘LLARI

Abdurahmonov Shoxruh Abdujabborovich

*Alfraganus Universiteti Xalqaro turizm menejmenti
kafedrası katta o‘qituvchisi. TDIU tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekstremal turizm tushunchasi, uning ahamiyati va O‘zbekistonda ekstremal turizmning turli yo‘nalishlari yoritilgan. O‘zbekistonning Chimyon, Beldersoy, Chotqol tog‘ tizmalari, Qizilqum cho‘li, Orol dengizi hududi, Chorvoq, Aydarko‘l, Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari, shuningdek, Amir Temur va Peshagor g‘orlari ekstremal turizm nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ularning rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ekstremal turizm, tog‘ turizmi, cho‘l turizmi, suv sporti, speleoturizm, paraplan, Orol dengizi, Chimyon, Beldersoy, Chorvoq.

Аннотация: В данной статье описывается понятие экстремального туризма, его значение и различные направления экстремального туризма в Узбекистане. Проанализированы с точки зрения экстремального туризма и изучены перспективы их развития узбекские горные хребты Чимён, Бельдерсой, Чотколь, пустыня Кызылкум, регион Приаралья, водохранилища Червок, Айдарколь, Амударья и Сырдарья, а также пещеры Амира Темура и Пешагор.

Ключевые слова: Экстремальный туризм, горный туризм, пустынный туризм, водные виды спорта, спелеотуризм, парашютный спорт, Аральское море, Чимён, Бельдерсой, Червок.

Annotation: This article discusses the concept of extreme tourism, its importance, and various areas of extreme tourism in Uzbekistan. The Chimyan, Beldersoy, and Chatkal mountain ranges of Uzbekistan, the Kyzylkum desert, the Aral Sea region, the Charvak, Aydarkul, Amu Darya, and Syrdarya water basins, as well as the Amir Temur and Peshagor caves, are analyzed from the perspective of extreme tourism, and their development prospects are studied.

Keywords: Extreme tourism, mountain tourism, desert tourism, water sports, speleotourism, paragliding, Aral Sea, Chimyon, Beldersoy, Charvak.

Ekstremal turizm sayyohlarning oddiy turistik yo‘nalishlardan tashqarida bo‘lgan, jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarga ega hududlarga sayohat qilishidir. Ushbu turizm turi insonlarga kuchli adrenalin va hayajon baxsh etadi. Ekstremal turizm jahon miqyosida tobora ommalashib bormoqda va u turli tabiat sharoitlarida amalga oshiriladi. Bugungi kunda turizmدا Ekstremal turizmning ahamiyati juda katta. Birinchidan, u sayyohlarni tabiiy sharoitlarga moslashishga o‘rgatadi, ikkinchidan, yangi madaniy va geografik hududlarni o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, ekstremal turizm mamlakat

iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi sababi, u yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish va infrastrukturani talab etadi. O‘zbekistonda turizm sohasida ekstremal turlar katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tog‘lar, cho‘llar, daryolar, g‘orlar va boshqa tabiiy hududlar mavjud bo‘lib, ular ekstremal turizm uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tog‘ turizmi. O‘zbekistonning tog‘li va tog‘oldi hududlari ekstremal turizm uchun qulay sharoitlarga ega. Ayniqsa, Chimyon, Beldersoy va Chotqol tog‘ tizmalari tog‘ sayyohligi, tog‘da amalga oshiriladigan velo turlar, chang‘i sporti va trekking uchun juda mos keladi. Chimyon tog‘lari tog‘ sayyohligi va chang‘i sporti uchun ideal joy bo‘lib, bu hududda har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar dam olish bilan birgalikda ekstremal turizm bilan shug‘ullanadi. Beldersoy ham chang‘i va snoubord sporti bilan shug‘ullanish uchun eng qulay hududlardan biri hisoblanadi. Chotqol tizmalari trekking, alpinistik turlar va tabiat go‘zalliklarni tomosha qilish uchun ajoyib joy.

Cho‘l turizmi. Cho‘l turizmi ekstremal sharoitlarda yashash va sayohat qilishni istaganlar uchun qiziqarli yo‘nalishdir. Qizilqum cho‘li – bu hududda qum safarlari, tuya minish, o‘tov lagerlari va milliy an‘analar bilan tanishish imkoniyatlari mavjud. Orol dengizi hududi – ekologik ekstremal turizmning eng qiziqarli maskanlaridan biri bo‘lib, u yerda kemalar qabristoni va chekka qishloqlarni ziyorat qilish mumkin. Orol hududida tuya minish, kvadrasikllarda safari, shuningdek havo sharlarida parvoz qilish mumkin. Orol hududidagi kanyonlarda esa camping, trekking, climbingni amalga oshirish mumkin.

Suv sporti va ekstremal turizm. Chorvoqda suv sporti, skuter haydash, suzish, kema sayohatlari bilan shug‘ullanish mumkin. Aydarko‘l hududi baliq ovlash va suv sporti bilan shug‘ullanish, qumli plyajda turli sport o‘yinlarini o‘ynash uchun ideal joy. U yerda siz campinglarda qolishingiz, betakror ko‘l va ajoyib quyosh botishini ham tomosha qilishingiz mumkin bo‘ladi. Amudaryo va Sirdaryo – rafting va qayiq safarlari uchun katta imkoniyatlarga ega. U yerda siz ekstremal, adrenalina boy va shu bilan bir qatorda biroz xavfli bo‘lgan rafting bilan shug‘ullanishingiz mumkin.

Speleoturizm. Speleoturizm g‘orlarni tadqiq qilish va ularning sir-asrorlarini o‘rganishga qaratilgan turizm turi hisoblanadi. Yurtimizdagi Amir Temur g‘ori – tarixiy va tabiiy jihatdan muhim bo‘lgan g‘or hisoblanadi. Peshagor g‘ori esa O‘zbekistonning eng sirli g‘orlaridan biri bo‘lib, sayyohlar orasida qiziqish uyg‘otmoqda. Oxirgi vaqtlarda ekstremal turizmga qiziquvchilar orasida Peshagor g‘ori juda ommalashdi. Siz g‘orga tashrif buyurish orqali qorong‘u g‘or, ko‘rshapalaklar, sirpanchiq yo‘llar, g‘ayri oddiy toshlar, chinakam adrenalin olishingiz mumkin.

Havo va yerosti ekstremal turlari. Paraplan va havo sharlari Toshkent viloyati, Xorazm viloyati va boshqa hududlarda ekstremal sport sifatida rivojlanmoqda. Bu kabi turlar nafaqat ekstremal tur sifatida balki ko‘plab juftliklar orasida romantik tur sifatida ham juda ommalashmoqda. Yerosti turlari bo‘yicha esa tog‘ konlarini tadqiq qilish va yerosti g‘orlarini o‘rganish bo‘yicha sayohatlar tashkil qilinmoqda.

Ekstremal turizm sayyohlarni o‘ziga tortadigan turizm turlaridan biridir. Xorijiy sayyohlar o‘ziga xos va noodatij tajribalarni izlaydi, bu esa O‘zbekistonning tabiiy va ekstremal imkoniyatlarini ularga taqdim etish imkonini beradi. Ekstremal turizm hududiy rivojlanishga katta hissa qo‘shadi. Mahalliy tadbirkorlar ekstremal sayyohlar uchun maxsus

xizmatlar – turar joy, transport, jihozlar ijarasi kabi bizneslarni rivojlantirishlari mumkin bo’ladi. Ekstremal turizm nafaqat sayyohlik balki sog’lom turmush tarzini ham targ’ib qiladi. Tog’ yurishlari, suzish, paraplan uchish kabi faoliyat turlari insonning jismoniy holatini yaxshilashga yordam beradi. O‘zbekiston ekstremal turizm bo‘yicha katta salohiyatga ega mamlakatlardan biridir. Tog‘lar, cho‘llar, daryolar va g‘orlar kabi tabiiy boyliklar ekstremal sayyohlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda infrastrukturani rivojlantirish, xavfsizlik choralari va reklama strategiyalarini kuchaytirish orqali bu yo‘nalishni yanada ommalashtirish va bu orqali O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar salmog‘ini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uzbekistan Travel. (2023). Turizmning ekstremal turlari. Uzbekistan Travel.
2. Uzbekistan Travel. (2023). Sport turizmi. Uzbekistan Travel.
3. Xabar.uz. (2024). O‘zbekistonda ekstremal turizmni rivojlantirish. Xabar.uz.
4. Тиловмуратов, Д. (2023). Влияние маркетинга в социальных сетях (smm) на туристические мотивации и решения о путешествии—процесс принятия решения: изучение Ташкента, Узбекистан. Alfraganus, (5 (5)), 73-78.
5. ResearchGate. (2024). O‘zbekistonda ekstremal turizmni rivojlantirish. ResearchGate.
6. Cyberleninka. (2023). O‘zbekistonda ekstremal va sport turizmining ahamiyati. Cyberleninka.
7. NewJournal.org. (2024). O‘zbekistonda ekstremal turizmni rivojlantirish. NewJournal.org.